

2024-yil 14-mart

KIMYO GIRLS RESPUBLIKA OLIMPIADASI G'OLIBLARI ANIQLANDI!



“O'zkimyosanoat” AJ, “Ziyo forum” ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish Xalqaro fondi hamda D.I.Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filiali bilan hamkorlikda talaba qizlar uchun kimyo fani bo'yicha olimpiada tashkil etildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan ushbu ilm-fan bellashuvida respublika bo‘ylab umumiy 600 nafar talaba qiz ishtirok etish istagini bildirgan.



Bugun olimpiadaning yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi va g'oliblar aniqlandi. Respublika bosqichining 3 turida test va laboratoriya sinovlaridan eng ko'p ball to'plagan 15 nafar qiz ishtirok etdi. Qizlar finalda jamoa sifatida o'z innovatsion loyihalarini taqdim etishdi. Loyihalar dolzarbligi, energotejamkorligi va iqtisodiy samaradorligiga ko'ra baholandi.

Технология получения синтетического гипса



реактор с пропеллерной мешалкой с объемом 1 м³ (300 об/мин)

Сушильный шкаф 90°C, 4,5 - 5 часов

$$\text{CaCO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$$

<https://elib.belstu.by/handle/123456789/2402>
<https://elib.belstu.by/handle/123456789/18191>



Tashkilotchilar tomonidan 1-o‘rinni egallagan jamoaga 20 million so‘m, 2-o‘rin uchun 15 million so‘m va 3-o‘rin uchun 10 million so‘m pul mukofotlari va qimmatbaho esdalik sovg‘alari taqdim etildi.



uzkiymyosanoat



uzkiymyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



uzkiyosanoat



uzkiyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



“O‘z kimyo sanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'z kimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyo sanoat.uz/oz/press/news/kimyo-girls-respublika-olimpiadasi-g-oliblari-aniqlandi>